

DIDAKTIKA - TA'LIM VA O'QITISH NAZARIYASI

Menglibayeva Fotima Jurayevna

Surxandaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumani

Qumqo'rg'on Agrotexnologiyalari texnikumi Rus tili fani o'qituvchisi

Darsning maqsadi:

a) ta'limiy: Pedagogika va Psixologiya fanining nazariy va amaliy asoslarini o'rganish jarayonida o'quvchilarda estetik did, estetik ong, ona tilimizga muhabbat, badiiy tafakkur va tasavvurini kamolga yetkazish va barkamol avlod tarbiyasiga zamin yaratish.

b) tarbiyaviy: Pedagogika va Psixologiya fani orqali o'quvchilarga DTS asosida dars berish. Shu bilan bir qatorda milliy iftihar, qadriyat sifatida e'tirof etish va uni hurmat qilishga o'rgatish.

c) rivojlantiruvchi: O'quvchilarni tafakkur va idrokini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish.

Nutqiy kompetensiya (*tinglab tushunish, so'zlash, o'qish, yozish*):

Berilgan topshiriq, sodda matnlarni tinglab tushuna oladi;

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– darslik (lug'atlar), kutubxona hamda media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olish, saqlash.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi:

– mustaqil o'qib o'rganish, doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy rivojlantirish, ijodiylik ko'nikmalarini oshirib borish.

Milliy va umummadaniy kompetensiya:

– madaniy me'yorlarga va sog'lom turmush tarziga hamda adabiy til me'yorlariga amal qilish.


Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

– guruhlarda hamkorlikda ishlay olish va bunda muomala madaniyatiga ega bo'lish

O'QUV JARAYONINI AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Dars turi:	<i>aralash yoki kombinatsiyalashgan: shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi</i>
Dars metodi:	<i>“Aralash”, “Interfaol metodlar”, “Guruhlarda ishlash”, “Ushbu matnning qismini top?”, “Aqliy hujum”</i>
Dars jihozi:	<i>darslik, ko'rgazmali va didaktik materiallar, proyektor, AKT</i>

DARSNING BLOK CHIZMASI:

№	DARS BOSQICHLARI:	Bajariladigan ish mazmuni	Ajratilgan vaqt	
1	Tashkiliy qism	Salomlashish, davomatni aniqlash, sinfni darsga tayyorlash, kun tarixi aytiladi	10 daqiqa	
2	O'tilgan mavzuni takrorlash	Takrorlash, mustahkamlash, yangi mavzu bilan bog'lash	15 daqiqa	
3	Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish	Yangi mavzuni tushuntirish	30 daqiqa	
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	Yangi mavzuni mustahkamlash	15 daqiqa	
5	Dars yakuni va baholash	G'olib guruhni aniqlash, rag'batlantirish. Darsning so'ngi xulosasini chiqarish	5 daqiqa	
6	Uyga vazifa	O'qituvchi tomonidan uyga vazifa e'lon qilinadi va keyingi mavzuga tayyorlanib kelish yo'nalishini aytib o'tadi	5 daqiqa	

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism.

O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish.

1.1. O'qituvchi o'quvchilarga darsning oltin qoidasini aytib o'tadi hamda o'quvchilar ushbu darsning oltin qoidalariga amal qilish kerakligi ta'kidlanadi.

- "Ong qo'l qoidasi" ga rioya qilish;
- O'zaro hurmat, o'zgalari fikrini tinglay olish;

Darsning oltin qoidasi

- Diqqat - e'tiborlilik, tezkorlik va topqirlik
- Vaqtga rioya qilish.

Darsning oltin qoidasi

- Qoidani unutma, Ma'nodan uzoq ketma. Gapni cho'zma oz gapir, Keng ma'noli soz gapir.

Darsning oltin qoidasi

1.2. Darsda psixologik iqlim yaratish, dars shiori va maqsadini e'lon qilish:

1.3. Kunning muhim voqealari aytib o'tiladi:



O'qituvchi tomonidan bugungi kunda tavallud topgan mashhur shaxslar, yurtimiz va jahon maydonida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlar, bayramlar haqida **qisqacha** ma'lumot berib o'tiladi.

II. O'tilgan mavzuni takrorlash:

“Guruhlarda ishlash”

O'quvchilar 3 guruhga bo'linadi. Har bir guruh uyga berilgan mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot berishadi.

III. Yangi dars mavzusi mazmunini tushuntirish:

III. Yangi mavzu: Kishilik jamiyati tomonidan to'plangan tajribalarni yosh avlodga o'rgatish jamiyatda yashashining zarur shartidir. Kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida hali insonlar endigina tabiat qiyinchiliklari bilan kurasha boshlagan davrda

ham o'zlarining uncha ko'p bo'lmagan tajribalarini yosh avlodga o'rgatganlar. Masalan: gulxanni yoqish, yovvoyi hayvonlarini ovlash uchun qurollar tayyorlash yo'llari va shu kabilarni o'rgatganlar. Bu davrda Bolalarga hayot uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarni o'rgatish stixiyali holda amalga oshirilib, uni alohida faoliyat turi deb sanalmagan. Lekin bu biz hozir ta'lim deb atayotgan faoliyatning o'zi bolgan. Shuning uchun ham yosh avlodga insoniyat to'plagan tajribalarni orgatish orqali ularning jamiyat hayotiga qatnashtirish hamma vaqt hamma xalqlarning asosiy ijtimoiy funksiyasi bo'lgan. Kishilik jamiyati yashar ekan talim hamma vaqt zarur bo'lib qolaveradi.

Tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy tajribalar ko'paya borgan sari, talim jarayonida beriladigan bilimlar mazmunining xarakteri va doirasi ham o'zgaradi. Shunday qilib, malum dasturga asoslangan, malum maqsadga qaratilgan maxsus ijtimoiy dorilfunun-maktab paydo bo'ladi. Endi esa maktabdagi faoliyat turi, uni amalga oshirish usuli va vositalarini asoslab berish zaruriyati paydo bolgan. Shunday qilib didaktika fani yuzaga keladi. Didaktika (grekcha didasko o'qitaman) ta'lim va ma'lumot haqidagi fandır. Insonning tarbiyasi rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida ta'lim va ma'lumot muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumot-bu egallagan, tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar, hosil qilingan dunyoqarashlar majmui.

Talim-o'qituvchi rahbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirilgan, ularning bilish qobiliyatlarini o'stiradigan va dunyoqarashini tarkib toptiradigan jarayondir. Talim va ma'lumot bir-biri bilan mustahkam bog'liq. Ma'lumot bu ta'limning natijasi, ta'lim esa ma'lumot olishning asosiy yo'lidir.

Didaktika fani ta'lim va ma'lumotning muhim muammolarini o'rganish bilan birga "kimni o'qitish kerak», "nimaga o'rgatish kerak», "qanday oqitish kerak" kabi savollarga ham javob bo'ladi. Didaktika sohasida birinchi asar yaratgan olim XVII asrning chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670). Ozining mashhur asari "Buyuk didaktika» (1632y yozilgan, 1975y ozbek tilga tarjima qilingan) sida oqitish va tarbiya jarayonlari, o'qitishning yo'llari va didaktik printsiplar maktabda talim-tarbiya ishlarini tashkil qilish kabi masalalarni ishlab chiqdi. Markaziy Osiyo allomalari

merosida ham didaktika sohasida yaratilgan bir qancha asarlarda ta'lim qoidalari, ta'limni tashkil etish, unda o'qituvchining roli kabi masalalar bayon etilgan Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Tadbiri manozil», Abu Nasr Farobiyning "Imlarning kelib chiqishi to'g'risida», "Sharxlar», "Evklid kitobining muqaddimasiga sharxlar», "Hikmat asoslari» kabi bir qator asarlarida, Burhoniddin Marg'iloniyning (1150-1187) "Ilmga kirishuvchi uchun birinchi asos» kabi asarlari shular jumlasidan. Didaktika quyidagi masalalar bilan: talim jarayonining mohiyati, ta'limni muvaffaqiyatli olib borish shartlari, ta'limning vazifasi va mazmuni, ta'limni tashkil etish shakli va metodlari, o'quvchilarning bilimni tekshirish va baholash kabi masalalar bilan "Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunida "Talim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustivor» deb elon qilinganligi ta'kidlanadi. Hozirgi davrda didaktlar vatanimiz va chet ellar pedagogikasi va psixologiyasi yutuqlariga tayanib o'quvchilarning faolligini va mustaqilligini oshirish, o'quvchilarni bilimlarni mustaqil egallashga o'rgatish, ularning bilish faoliyatlarini faollashtirish, darsni takomillashtirish, talim printsiplari va ta'limning izchilligi va shu kabi muammolarda tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Didaktika ikkiga bolinadi: umumiy didaktika va xususiy didaktika.

Umumiy didaktika maktablarda o'rganiladigan barcha predmetlarga xos bo'lgan o'quv jarayonining umumiy qonuniyatlari tekshiriladi va belgilanadi.

Xususiy didaktikada esa u yoki bu predmetni o'rgatishga xos bo'lgan didaktik qonuniyatlar tekshiriladi va belgilanadi.

Didaktika pedagogika fanlari sirasiga kirgani uchun ham ta'lim sohasini tadqiq etishda pedagogik ilmiy-tekshirish metodlaridan foydalaniladi.

1. Kuzatish.
2. Ilgor pedagogik tajribani organish va umumlashtirish.
3. Didaktik eksprement.
4. Hujjat va arxiv materiallarini tekshirish (dars planlari, sinf jurnallari va h.) va oquvchilar ishlari (insho, kontrol, grafik ishlar, oquv ustaxonasida bajarilgan ishlar).
5. Suhbat va anketa.

Mustaqil O'zbekistonda didaktika rivojlanishining hozirgi etapi "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi» talim oldiga qo'ygan muammolar bilan bog'liq.

Hozirgi davrda ham didaktikaning muhim vazifasi ta'limning mazmunini bir asosiy masalaa barkamol shaxsni tarbiyalash masalasiga qaratish bo'lib qoldi. Shuning bilan birga hozirgi va kelgusi didaktika faqatgina shu masalani bajarish bilangina cheklanib qolmaydi.

Hozirgi kunda "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» va "Talim to'g'risida»dagi Qonun talim oldiga qogan muhm vazifalarni yechish hozirgi zamon didaktikasi zimmasiga tushadi.

Bular:

1) boshlangich talim didaktikasi oldiga oquv-tarbiya jarayonini takomillashtirish yangi pedagogik texnologiya joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarur;

2) boshlang'ich ta'lim standartlarini ishlab chiqishda fan bilan Bolaning bilim imkoniyatlari o'rtasidagi birlikni o'rganish sohasida keng tadqiqotlar olib borish;

3) oquvchilarning bilish qobiliyatlarini ostirish, ilmiy dunyoqarash va erkin fikrlashga o'rgatish, mustaqil bilim olish va mustaqillikka o'rgatish bugungi kun vazifasi. Chunki boshlangich talimdayoq bolarga etibor berilmasa o'quvchining mustaqil, erkin va ijodiy fikrlashga o'rgatib bo'lmaydi.

4) boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Kadrlar tayyorlash Milliy modeli» talablari asosida tayyorlash. Ularni yuqori professional qobiliyatga ega, bilimdon, pedagogik mahoratli bo'lishlariga erishish.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

Yo'l qo'yilgan xatolar birgalikda tuzatiladi. Fikrlar to'planib tahlil va qisqacha xulosa qilinadi.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



S - (strength)	• kuchli tomonlari
W - (weakness)	• zaif, kuchsiz tomonlari
O - (opportunity)	• imkoniyatlari
T - (threat)	• tushuntirish

“Ikki qismli kundalik” metodi

Bu metod o'rganilgan mavzu bo'yicha o'quvchilarning tushunchalarini shaxsiy tajriba bilan bog'lashga imkon beradi.

Maqsad: O'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuga qiziqishini uyg'otish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, tushunchalarni o'zlashtirilganlik darajasini aniqlash.

Tushunchalar va ularning izohi o'qilayotganda savol berish yoki mazkur tushuncha yuzasidan o'z izohini berishga ruxsat etiladi, biroq fikrlar takrorlanmasligi so'raladi. Bunda o'quvchilar individual (faol metod) yoki guruhlarda (interfaol metod ishlashlari mumkin. “Davra suhbatlari” metodi Mazkur metod aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta'lim oluvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladi. “Davra suhbatlari” metodi qo'llanilganda stolstullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta'lim oluvchining bir-biri bilan “ko'z aloqasi”ni o'rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og'zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og'zaki davra suhbatida ta'lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta'lim oluvchilardan

ushbu savol bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so'raydi va aylana bo'ylab har bir ta'lim oluvchi o'z fikr-mulohazalarini og'zaki bayon etadilar. So'zlayotgan ta'lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo'lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo'lingandan so'ng muhokama qilinadi. Bu esa ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Davra stolining tuzilmasi: Yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har bir ta'lim oluvchiga konvert qog'ozi beriladi. Har bir ta'lim oluvchi konvert ustiga ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "javoblar varaqalari"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Konvertni olgan ta'lim oluvchi o'z javobini "javoblar varaqalari"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagi ta'lim oluvchiga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.



V Dars yakunlarini chiqarish.



1. O'quvchilarda paydo bo'lgan savollarga javob berish;
2. Baholarni e'lon qilish.

3.O'quvchilar aytib o'tgan fikrlari to'planib tahlil va xulosa qilinadi va darsning eng so'nggi xulosasi chiqariladi.

VI. Uyga vazifa



Uyga vazifa. Berilgan topshiriqni bajarib kelish.